XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar VI-49-2-10-139-K/23 Qibray tuman hokimligi

Qibray tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 2022-yil 27-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-oktabrdagi 02-958-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1020-sonli xatlarini hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli Qarorini inobatga olib, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Qibray tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O’RQ-813-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-sonli Qarori va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi

“Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli Qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O’RQ-813-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-741-sonli Qaroriga hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli Qaroriga muvofiq, Qibray tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 104 600,794 mln.so‘m va xarajatlari 172 082,044 mln.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 67 481,25 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat`iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

4. Tuman budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam (aylanma kassa) mablag‘lar miqdori 1 141,837 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2023-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 623,416 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

6. 2023-yil uchun tuman budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari, umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalarning me’yoriy ko‘rsatkichlari hamda taqsimlanuvchi daromadlar 1-ilovaga muvofiq ma`lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman budjetidan 2023-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha hududlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 3-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Xalq deputatlari tuman Kengashi oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 63 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 63 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o’tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo’lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o’tkaziladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi;

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Bekmurodov), Moliya bo‘limi (v.v.b Sh.Alibekov), Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov) va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov), Kadastr agentligi tuman bo`limi (M.Tolipov) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Qibray tuman bo`limi (Sh.Abdullaxonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo`limi (N.Alimov), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman Irrigatsiya bo`limi (U.Yuldashev) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Xalmatov) tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Tuman budjetining jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin

Bunda, tuman Xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

20. Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Bekmurodov), tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Mazkur qaror “Qibray sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Bekmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Mirkasimov**

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-49-2-10-139-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun Toshkent viloyati Qibray tumani bo'yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko'rsatkichlari

Daromad turlari		**Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori foiz (%)da**	**Miqdori (ming so'm)**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	5	7 312 710
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	30	7 573 181
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5	11 922 364
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	100	1 350 000
5	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	0	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10	2 508 170
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	10 125 490
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	10	3 781 419
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	100	18 165 173
7	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	100	4 526 405
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elekrt stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq bundan mustasno)	100	8 297 989
9	Davlat boji	0	0
10	Jarimalar	0	0
11	Davlat unitar korxonalari divident tushumlari	0	0
9	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	100	1 103 843
10	Yig'imlar	0	0
11	Xususiylashtirish	0	0
12	Boshqalar	0	0
JAMI			**76 666 744**

	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad		**27 934 050**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo		11 300 755
14	Mobil aloqa xizmati		4 847 367
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig'i		11 785 928
JAMI DAROMAD			**104 600 794**

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-49-2-10-139-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun Toshkent viloyati Qibray tumani bo'yicha mahalliy budjet xarajatlarining reja ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar		Miqdori (ming so'm)
	Xarajatlar - jami	**172 082 044**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**112 331 504**
1.1	Maorif	24 989 907
	- maktabgacha ta'lim	11 209 810
	- umumiy ta'lim	13 780 097
1.2	Sog'liqni saqlash	67 256 877
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 062 556
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	2 333 549
	- sport	3 729 007
1.4	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	13 794 983
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46 000
1.5	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	181 181
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**21 384 135**
2.1	Fermerlar xo'jaliklari bugalteriya markazlari	377 317
2.2	Obodonlashtirish	16 388 465
2.3	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	2 077 365
2.4	Veterenariya qo'mitasi	1 057 596
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 483 392
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**23 783 790**
3.1	Davlat boshqaruv organlari	23 783 790
4	**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish oqganlarini saqlash**	**4 842 121**
5	**Zaxira jamg'armasi**	**1 623 416**

6	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	8 117 078

Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 67 481 250

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-49-2-10-139-K/23-son qaroriga
3-ilova

Qibray tumanida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i stavkalari uchun 2023-yil uchun belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahallalar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo'yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (ming so'm)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023-yil uchun (so'm)
1	M.Ulug'bek MFY	0,80	31 680,0	0,80	285,1
2	Bobur MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
3	Boyjigit MFY	0,70	27 720,0	0,70	249,5
4	Oybek MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
5	Ahillik MFY	0,90	35 640,0	0,95	338,6
6	Bunyodkor MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
7	Navruz MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
8	Tinchlik MFY	0,70	27 720,0	0,70	249,5
9	Fayzobod MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
10	Fidokor MFY	0,75	29 700,0	0,70	249,5
11	Farovon MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
12	Ma'rifat MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
13	Soxibkor MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
14	Shodlik MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
15	Iftixor MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
16	G'ofur G'ulom MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
17	Zebiniso MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
18	Beruniy MFY	1,20	47 520,0	1,20	427,7
19	Yangi Obod MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
20	Do'rmon MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
21	Nurafshon MFY	1,20	47 520,0	1,20	427,7
22	Yangi Arg'in MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
23	Yuqori yuz MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3

24	Birlik MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
25	Olmazor MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
26	Qipchoq MFY	0,80	31 680,0	0,80	285,1
27	Hosildor MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
28	Yangiyo'l MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
29	O'nqo'rg'on MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
30	Yangi O'nqo'rg'on MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
31	Obod MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
32	Guliston MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
33	Parvoz MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
34	Mustaqillik MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
35	Bo'ston MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
36	Istiqlol MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
37	O'tkir MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
38	Chinobod MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
39	Xaydarobod MFY	1,20	47 520,0	1,20	427,7
40	Yonariq MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
41	Taraqqiy MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
42	Madaniyat MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
43	Qurilish MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
44	Mehnat MFY	0,80	31 680,0	0,80	285,1
45	Ziyokor MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
46	Yangi hayot MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
47	Shalola MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
48	May MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
49	Yangi avlod MFY	0,70	27 720,0	0,70	249,5
50	Po'at Qadam MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
51	Xo'jaqo'rg'on MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
52	Sharq MFY	0,80	31 680,0	0,80	285,1
53	A.Jomiy MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
54	Turkiston MFY	0,70	27 720,0	0,70	249,5
55	Ilg'or MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
56	Uzumzor MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
57	Darxan MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
58	Yoshlik MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8
59	Botanika MFY	0,90	35 640,0	0,90	320,8

60	Oq-oltin MFY	0,80	31 680,0	0,80	285,1
61	Uymovut MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
62	A.Navoiy MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
63	Baytqo'rg'on MFY	1,30	51 480,0	1,30	463,3
64	Navbahor MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
65	Istiqbol MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
66	Ko'prikboshi MFY	1,10	43 560,0	1,10	392,0
67	Nurobod MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4
68	GES Qodiriya MFY	1,00	39 600,0	1,00	356,4

Xalq deputatlari Qibray tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-49-2-10-139-K/23-son qaroriga
4-ilova

Qibray tumanida 2023-yilda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorining belgilangan koeffitsienti

T/r	Tuman	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so'm)
1	Qibray tumani	1,0	1 000 000,0